



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY
HARBIY AVIATSIYA BILIM YURTI**



SAMO QALQONLARI
ILMIY-AXBOROT JURNALI



**2(6)
2023**



SAMO QALQONLARI



O'zbekiston Respublikasi Oliy
harbiy aviatsiya bilim yurti

Высшее военное авиационное
училище Республики
Узбекистан

The Higher Military Aviation
School the Republic of Uzbekistan

TAHRIRIYAT MANZILI:
180117, Qarshi shahri, Jayxun
ko'chasi 54 uy O'R OHABYu
Ilmiy - uslubiy bo'limi
Tel: (+998 75) 221-20- 12
(+998 75) 221-21- 92
Faks: (+998 75) 221-21-54
E-mail-airforce@umail.uz
E-xat:konselyariyavvauru@exat.uz

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining Oliy
Attestatsiya Komissiyasining
2022 yil 30-apreldagi 315/1 sonli
rayosatidan o'tgan.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim
yurti Ilmiy-uslubiy kengashi**

Tahrir hay'ati

Tahrir kengashi raisi: Burxonov A.J., general-
mayor, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining
o'rinbosari - Havo Hujumidan Mudofaa Qo'shinlari va
Harbiy Havo Kuchlari Qo'mondoni

Tahrir kengashi raisi o'rinbosarlari:

Xamraev A.A., polkovnik, O'zbekiston
Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti boshlig'i

Ummataliev K.A., polkovnik HHMQ va HHK
qo'mondonining o'rinbosari - bosh muhandisi

Suvanov A.U., polkovnik Chirchiq aviatsiya
ta'mirlash zavodi davlat korxonasi direktori

Bosh muharrir: S.X. Yakubov t.f.d., (DCs)
professor, O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy
aviatsiya bilim yurti Umumtexnika fanlari kafedrasi
professori

Bosh muharrir o'rinbosari: Dusmatov X.A.,
dotsent, podpolkovnik O'R OHABYu Ilmiy-uslubiy
bo'lim boshlig'i

Hay'at a'zolari:

Abdurayimov S.S., h.f.d., dotsent, polkovnik
CHOTQMBY boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlar
bo'yicha birinchi o'rinbosari

Raximov B.N., kapitan, t.f.d., (DSc) professor
O'R MV AKT va AHI boshlig'i o'quv va ilmiy ishlar
bo'yicha birinchi o'rinbosari

Elmuradova L.N., f.f.n, dotsent, Qurolli kuchlar
xizmatchisi, O'R OHABYu Tillar kafedrasi professori

Saatova L.E., i.f.f.d., (PhD), Qurolli Kuchlar
xizmatchisi, O'R OHABYu Axborot texnologiyalari
kafedrasi o'qituvchisi

Alikulov Y.A., t.f.d., (PhD), podpolkovnik, O'R
OHABYu O'quv bo'limi boshlig'i

Jonkobilov U., t.f.d., (DCs) professor, O'R
OHABYu Umumtexnika fanlari kafedra boshlig'i

Tajiev J.A., mayor t.f.n., (PhD), O'R MV AKT
va AHI Ilmiy - tadqiqotlar laboratoriyasi boshlig'i

Ergasheva R.T., f.f.f.d., (PhD), Qurolli Kuchlar
xizmatchisi, O'R OHABYu Tillar kafedrasi dotsenti

Maxmanova X.N., t.f.f.d., (PhD), Qurolli
Kuchlar xizmatchisi, O'R OHABYu ijtimoiy-iqtisodiy
va gumanitar fanlar kafedrasi professori

Eshtemirov J.S., t.f.f.d., (PhD), Qurolli Kuchlar
xizmatchisi, O'R OHABYu ijtimoiy-iqtisodiy va
gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

Ma'sul kotib:

Tuganov G.Sh., dotsent, podpolkovnik O'R
OHABYu Aviatsiya jihozlari kafedra boshlig'i

I. QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDA AVIATSIYA, MUHANDISLIK, KONSTRUKTORLIK, AVIATSIYA TEXNIKALARINI QO'LLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

1. Избосаров А.Ф., Яхёев А.А., Нигматов З.З.

Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучларининг инфокоммуникация тармоқларида трафикни бошқариш тизимининг канал сатҳидаги кадрларни узатишнинг реал вақтини аниқлаш..... 5

2. Сирожов Х.Х., Байбубаев О.А.

Технология изготовления фильтрующего элемента системы смазки калёсных машин..... 14

3. Бобоев И, Кобилов А.

Анализ тактико-технические данные зарубежных самолетов 5-го поколения.....18

4. Соттаров Ф.Д.

Условия устойчивого движения автомобиля28

5. Соттаров Ф.Д.

Динамические нагрузки в трансмиссии, возникающие при включении сцепления.....33

6. Гузаров Ш.Э.

Модернизациялаштирилган бтр-70д русумли зирхли транспортёрнинг жанговар имкониятларини ошириш истиқболлари.....38

7. Xudayberganov X.O'.

Qo'lbola portlatish qurilmalarini aniqlashga jalb qilinadigan kuch va vositalarni qo'llashga zamonaviy yondashuv.....43

8. Sirojev H.X.

Bronza kukuni va uning qotishmalari asosida metallokompozit filtrllovchi materiallar olish texnologiyasi..... 49

II. HARBIY TA'LIMDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING ISTIQBOLLARI

9. Maxmanova X.N.

Mamlakat mudofaa tizimini mustahkamlashda havo hujumidan mudofaa va harbiy havo kuchlari qo'shinlarining tashkil etilishi.....52

10. Холдаров А.Й.

Замонавий куролли можароларни олдини олиш бўйича хорижий давлатлар армияси бирлашмаларини қўллашнинг шакл ва усуллари.....57

11. Санчик Д.В.

Обоснование физического воспитания курсантов высших военно-учебных заведений.....65

12. Касымов У.И.

Куролли кучлар бош штаби ташкилий-сафарбарлик бош бошқармаси кўшинларни жойлашув бўлими бошлиғи..... 70

13. Ismatov B.A.

“Temurbeklar maktabi tarbiyalanuvchilarini harbiy-kasbiy faoliyatga yo'naltirishning pedagogik imkoniyatlari”.....76

14. Mustanov O.G'.

Transport-logistik tizimlar faoliyatini muvofiqlashtirish.....79

15. Sodiqov X.M.

Ommaviy tartibsizliklarni o'rganishdagi nazariy yondashuvlar82

16. Zoyirov A.Z., Mamatov A.B.

Germaniya politsiyasining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tajribasi.....88

17. Abdulxamitov X.A., Xomidjonov U.Sh.

O'zbekiston respublikasi milliy gvardiyasi hamda ichki ishlar vazirligi bo'linmalari jamoat xavfsizligini ta'minlashda o'zaro hamkorlik.....93

18. Астанакулов З.С., Йўлдашов Б.Т.

Оммавий тартибсизликлар.....98

19. Гопоров М.Т.

Авиайўналтирувчининг тайёргарлиги.....102

20. Даминова Б.Э.

Ўзгарувчан ижтимоий-иқтисодий шароитларида касбий таълимни мослашиш тамойиллари ва талаблари.....109

21. Xoliqov X.

Amir Temur va Temuriylar davri ilm-fan va maorifining zamonaviy harbiy kadrlarni tayyorlashdagi o'rni.....112

22. Тураев Б.Т., Мамасаидов У.Э.

Причины и источники нарушений информационной безопасности.....116

23. Ibodulloyev M.S.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etilishning o'ziga xos jixatlari..... 122

24. Йўлдашов Б.Т., Астанакулов З.С.

Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик асосида жамоат хавфсизлигини ҳамкорликда таъминлаш: муаммо ва ечимлар128

25. Салоҳиддинов Ж.Б.

Қонун устуворлиги-ҳуқуқий демократик давлатнинг муҳим мезони.....135

26. Шукуров Н.Р., Мухамдиев Г.М.

Зирхли муҳандислик машиналарини жанговар шароитларда қўллаш истиқболлари139

27. Убайдуллаева Ш.А.

Иккинчи жаҳон уруши йилларида матбуот фаолияти (фронт газеталари таҳлили асосида).....144

28. Olimova M.R.

Siyosiy madaniyatning zamonaviy konsepsiyalari.....151

29. Саманов Б.Э.

Хитой халқ республикасида полиция машғулотларини ташкил этиш.....156

30. Нишанов Д.Х.

Фавкулотда ҳолатни жорий этиш асослари, шартлари ва тартиблари: муаммолар, ўзгариш тенденциялари, истиқболлар.....161

31. Хоїҳонов Г.Ҳ.

Ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishini oldini olishda tezkor profilaktik tadbirlar o'tkazishning samaradorligi.....167

32. Маматов А. Б., Ибодуллоев М.С.

Хорижий мамлакатларда оммавий тадбирларни ўтказиш мобайнида жамоат тартибини ва хавфсизликни таъминлаш тартиби. (Футбол ўйинларида)..... 171

33. Xudayberganov X.O., Xalilov SH. X.

Amerika qo'shma shtatlari qo'shinlari tomonidan jangovor harakatlar olib borishda qo'lbola portlatish qurilmalarni aniqlash va zararsizlantirishga jalb qilinadigan kuch va vositalarni qo'llash tajribasi.....179

34. Турғунбоев Т.Т.

Основы авиационной психологии.....185

35. Тиляев А.Н.

Преимущества Question Nautical Hight (QNH) над Question Field Elevation (QFE).....196

36. Гофуров М.М., Тиллабоева М.Б.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг жамият ва фуқаролар олдидаги конституциявий-ҳуқуқий жавобгарлиги.....199

37. Mamatqulov B.

O'zbekiston sanoatida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalari (1925 – 1991 yu)...187).....207

38. Бобомуродов Д.А.

Ўсмирларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда интернет жаҳон ахборот тармоғининг тутган ўрни.....212

39. Ашуров Ф.Р.

«Роль и значения ГИС ВН в военных играх».....215

40. Umarova N.Sh.

Shaxs ustanovkalarining aholi iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'siri.....219

41. Тошпулатов Б.

Уруш йилларида тиббиёт институтлари фаолияти.....226

42. Рахматова Д.Ж.

«Ўзбеклар Иши» кампаниясининг пайдо бўлиш омиллари ва ҳаракат тўлқининг бошланиши.....230

43. Холов А.Х.

Бошқарув қарорларини қабул қилиш бўйича сингапур тажрибаси..... 234

44. Темирова Ч.Х., Исломов Ф.У.

Мамлакатнинг тараққиёт этишида таълим-тарбиянинг ўрни.....239

45. Исломов Ф.У.

Ичкиликбозлик-жамият иллати.....244

46. Исломов Ф.У.

Ичкиликбозлик –мураккаб ижтимоий ходиса247

47. Бобаева Ш.Я.

Логичность и функциональные стили речи в среде массовой информации.....250

48. Исломов Ф.У., Темирова Ч.

Соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб этиш – долзарб масала.....253

49. Kandaxarov A.X.

Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari.....257

50. Akmamatov O.Y.

XX asrning 20 yillarida O'zbekistonning qishloq xo'jaligi tizimida ro'y bergan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar.....261

51. Buranov J.SH.

Milliy gvardiya bo'linmalarining Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorligini joriy holati va ahamiyati. (Rossiya Federatsiyasi Ros gvardiyasi tajribasi misolida).....266

52. Кучкаров Б.Т.

Ҳарбий хизматчиларнинг умуммаданий компетентлигини ривожлантириш тенденциялари..... 270

53. Камолов О.Я.

Россия махсус операциясининг зирҳли техникалар ривожланишига таъсири.....273

54. Saydullayev U.U.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Bobur hayoti va ruhiyatini o'rganilishi va hozirgi zamon talqinida278

54. Зоиров М.А.

Использование тренажеров и учебных комплексов в высших военных образовательных учреждениях республики узбекистан.....282

III. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLAR RIVOJI

55. Djuraev R.Z.

Information technologies in military safety of the state ensuring286

56. Saitakhmadov M.B.

Exploring the benefits and future of artificial intelligence291

57. Боллиев К., Холмуродов Д.

Использованию компьютерной техники в процессе обучения на основе системного подхода.....298

O‘ZBEKISTON SANOATIDA AMALGA OSHIRILGAN TADBIRLAR VA ULARNING NATIJALARI (1925 – 1991 yy)

Bekzod Mamatqulov

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori ,

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada, O‘zbekistonda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning oqibatlari (1925 – 1941 yy) ni ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: og‘ir sanoat, trikotaj, kimyo sanoati, xalq xo‘jaligi, yalpi mahsulot, oziq-ovqat sanoati, fabrika.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы проведение политики индустриализации в Узбекистане и ее последствия (1925-1941 гг.).

Ключевые слова: тяжелая промышленность, трикотаж, химическая промышленность, народное хозяйство, валовой продукт, пищевая промышленность, фабрика.

Annotation: In this country, the implementation of the industrialization policy in Uzbekistan and its consequences (1925-1941) are scientifically analyzed.

Key words: heavy industry, knitting, chemical industry, national economy, gross domestic product, food industry, factory.

O‘zbekistonda 30-yillarda ham sanoat qurilishi sur‘atlarini asossiz ravishda jadallashtirish tendensiya davom ettirildi. Respublika iqtisodiyotining mamlakatning asosiy paxta bazasi sifatida ixtisoslashuvchi yanada kuchaytirildi. Shuningdek, to‘qimachilik, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati, ipakchilik, uzumchilik va umuman qshloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini ko‘paytirish vazifalari qo‘yildi. O‘zbekistondagi sanoat korxonalari asosan Markaz manfaatlariga muvofiq tashkil etilib, mintaqa aholisi uchun zarur bo‘lgan zavod va fabrikalar qurish masalasi hech kimni qiziqitirmadi.

Urushdan oldingi besh yilliklar davrida sanoatning xalq xo‘jaligida egallagan salmog‘i 1928 yildagi 43% dan 1940 yilda 70% ga yetdi. Ammo sanoat Markaz tasarrufida edi. Masalan, 30 yillarning o‘rtalarida O‘zbekistondagi korxonalarning 90% ittifoq tasarrufida bo‘ldi. Ammo sanoat korxonalari O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha joylashtirishda nomutanosibliklar mavjud edi.

1933-yil O‘zbekiston viloyatlarida sanoat korxonalarining joylashtirilishi.

Jadval³⁷

№	Iqtisodiy rayon va okruglar	1933-yil	
		Korxonalar soni	Ishchilar soni
1	Toshkent	208	26305
2	Farg‘ona	201	23160
3	Zarafshon	172	12223
4	Qashqadaryo	27	1231
5	Surxondaryo	21	1019
6	Xorazm	30	1545

³⁷ Неполнин В.Я. Исторический опыт строительства социализма в Узбекистане (1917-1937 гг.) Т., 1960, 275 с.


Ko‘rilgan tadbirlar natijasida O‘zbekistonda 1937 yil yirik sanoat korxonalari soni 948 ta bo‘lsa, 1940 yil ular soni 1445 ta bo‘ldi. Bu yillarda sanoatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1487,7 mln rubldan 2189,9 mln rublga kupaydi.

1940-yil O‘zbekiston sanoat korxonalarining viloyatlar bo‘yicha joylashtirilishi
Jadval

Viloyatlar	1940 yil korxonalar soni
1. Toshkent	514
2. Farg‘ona	181
3. Namangan	100
4. Andijon	104
5. Samarqand	195
6. Buxoro	96
7. Surxandaryo	56
8. Qashqadaryo	51
9. Xorazm	59
10. QQ ASSR	89
11. Respublika	1445

O‘zbekistonda boy xom ashyo manbalari bo‘lishiga qaramay, XX asrning 30 yillariga qadar kimyo sanoati deyarli bo‘lmagan. Ohak kuydirish, o‘simlik buyog‘i olish, oltingugurt ishlab chiqarish, ishqoriy moddalar tayyorlash, sovdagarlik bilan shug‘ullangan bir qancha kichik korxonalra faoliyat olib borgan. Zamonaviy kimyo sanoatining vujudga kelishi Farg‘ona vodiysidagi Sho‘rsuv oltingugurt konining ishga tushirilishi bilan boshlanadi.

1932 yildan Chirchiq elektr kimyo kombinati qo‘rilishi boshlanib bu korxona 1940 yil oktabrdan mahsulot bera boshladi. Shu yili respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida kimyo sanoati hissassi 0,8% ga teng bo‘ladi, bu sanoat sohada band bo‘lgan ishchilar esa 1% ni tashkil etdi.



Rasm. 1940-yidagi sanoat korxonasi.

O'zbekistonda sanoatning mashinasozlik sohasining asosan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq tarmoqlarini rejalashtirishga e'tibor berildi. O'rta Osiyodagi eng yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lgan. "Tashselmash" zavodi 1932 yil 1 mayda ishga tushirilib, 1934 yilda qurilishi montaj ishlari tugallandi va mazkur korxona ittifoqning og'ir sanoat korxonalari ruyxatga kiritildi. Bu zavod O'zbekiston mashinasozlik sanoatining to'ng'ich korxonasi edi. 1940 yil O'zbekistonda mashinasozlik sohasida faqat qishloq xo'jaligi bilan bog'liq texnikalar ishlab chiqildi, ya'ni, 507 dona traktor seyalkasi 1903 dona traktor kultivatori, 5 dona paxta terish mashinasi ishlab chiqariladi.

Asosiy qurilish materialli hisobigan sement bu davrda asosan Toshkent va Farg'ona ishlab chiqarildi. 1932 ming tonna, 1937 yil 138 ming tonna 1940 yil O'zbekiston bo'yicha 267,3 ming tonna sement ishlab chiqarildi. 1940 yil sementning 117,2 ming tonnasi Toshkent, 150,1 ming tonnasi Farg'ona hissasi to'g'ri keldi.

Yana bir qurilish materiali, ya'ni pishiq g'isht ishlab chiqarilishi viloyatlar bo'yicha taqsimlaganda ham o'rtadagi tafovut yaqqol namoyon bo'ladi.

Masalan 1925-1926 yillarda O'zbekistonda 12,9 mln dona g'isht ishlab chiqarilib, uning 6,9 mln donasi Toshkent shahri, 2,6 mln donasi Samarqand, 1 mln donasi Andijon, 1,6 mln donasi Toshkent viloyati hisobiga to'g'ri keldi. Boshqa viloyatlarda 1940 yilda bu soha yo'lga qo'yilmagan. O'zbekiston bo'yicha 302,3 mln dona g'isht ishlab chiqarilib, shuning 98,8 mln donasi Toshkent viloyati 8,1 mln Toshkent shahri hisobiga to'g'ri keldi. Bu ko'rsatgich Buxoroda 9,6 mln dona, Qashqadaryoda 3,4 mln dona to'g'ri keldi. Xolbuki, 1939 yil aholi ruyxati bo'yicha Toshkent viloyati aholisi 648 ming kishi Buxoro 481 ming kishi, Qashqadaryo viloyati 460 ming kishidan iborat edi.



Rasm. 1928-yildagi sanoat korxonasi ishchisi.

Tirikotaj sanoati O'zbekistonda 30-40 yillarda shakllandi.

1939 yil o'rta Osiyoda eng yirik hisoblangan Qo'qon paypoq fabrikasi ishga tushirildi. Urushgacha, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Urganch, Andijon tikuvchilik fabrikalari faoliyat olib bordi. Mazkur korxonalarda yillik ishlab chiqarish rejalari bajarilishi turlicha bo'ladi.

Masalan, 1938 yil o'zida tikuvchilik fabrikalarida reja 100,4% bajarildi. Ammo 3 ta tikuvchilik fabrikasi Buxoro tikuvchilik fabrikasi rejani 98,8% bajardi.

Fabrikada mehnatni to'g'ri tashkil etilmaganligi, xom ashyo ta'minotidagi kamchiligini rejasi bajarilmasligiga sabab bo'ladi. Buxorodagi 2 tikuvchilik fabrikasi yillik dasturni bor-yo'g'i 37,2%ga bajardi. Bu korxonadagi eng asosiy muammo bu muhandis-texnik xodimlarning yetishmasligi bo'ladi.

Yangi Urganch tikuvchilik fabrikasini yillik dasturini 89,4 % i bajardi. Bu fabrikalarda 98 ta har xil turdagi mahsulotlar ishlab chiqardi.

1937 yildan sun'iy ipakdan gazlamalar to'qish boshlandi O'zbekistonda qadimdan poyabzal tayyorlashning o'ziga xos usullari va an'analari mavjud edi. Poyabzal tikuvchi kosiblar qulda aholining turli qatlamlari uchun har xil andozalarda etik, shaxsi, kavush tikkanlar. Birinchidan poyabzal fabrikasi 1927 yil Toshkent shahrida ochildi. 1935 yil shu shaharda ikkinchi poyabzal fabrikasi ishga tushirildi. Bu turdagi korxona 1938 yil Buxoroda, 1939 yil Samarqand, To'rtko'l, Termiz shaharlarda, 1940 yil Andijon, Qo'qon, Chirchiq, Namangan shaharlarida kichik hajmdagi payabzal fabrikalari ishga tushirildi. Shu yili O'zbekiston bo'yicha 3823 ming dona payabzal ishlab chiqarilib, shundan 3025 mingga Toshkent shahriga to'g'ri kelsa, Qashqadaryo 15 mingdona Surxondaryo 8 ming dona to'g'ri keldi. O'zbekiston ittifoq tasarrufidagi sanoat korxonalariga nisbatan mahalliy sanoat korxonalariga kam mablag' ajratildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi aholi talabidan orqada edi. Mahalliy aholining ko'pchiligining fabrikada tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyati cheklangan edi. Bu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini asosan shahar aholisi iste'mol qilib, qishloq aholiga esa o'zlarin tayyorlagan mahsulotlarni iste'mol qilganlar.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari mahalliy xom ashyolar asosida mahsulot ishlab chiqardilar.

1936 yil Sovet davlatidagi eng yiriklardan biri bo'lgan Kattaqo'rg'on yog'-ekstraksiya zavodi ishga tushirildi.

1940 yil O'zbekistonda 7 ta yirik un tortish korxonasi faoliyat olib bordi.. 1935-1940 yillarda G'allaorol va Zarbdorda elevator quruldi.

Urushgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda konseryameve-sabzavot sanoati korxonalari asosan Toshkent va Farg'ona viloyatlarida joylashdi. 1938 yilda O'zbekistonda 5,87 mln shsonili banka va 3,8 ming tonna quruq meva, 1940 esa 26,4 mln shsonili banka meva-sabzavot va 12,1 ming tonna quruq meva ishlab chiqarildi. Bu sohaga tegishli raqamlar tahlil etilganda. Viloyatlar o'rtasidagi tafavut namayon bo'ladi. Masalan, 1940 yil Toshkent viloyatda 23 ming shsonili banka konserva ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu qashqadaryo viloyatida 59 ming banka Qaroqalpog'istonda 20 ming, Xorazmda 15 ming banka edi. Buxoro, Sirdaryo va Surxondaryo bu soha umuman yo'lga qo'yiladi.

O'zbekistonda 30 yillarda sanoat qurilishi tarixi o'rganilganda qo'yidagi umumlashgan xulosalar chiqarish imkoni berdi:

Birinchidan, O'zbekistonda urushdan oldingi yillarda ham sanoat sohasini jadallashtirish tendensiyasi davom ettirilib, respublika iqtisodiyotining sobiq ittifoqning asosiy paxta bazasi sifatidagi ixtisoslashuvi yanada avj oldirildi. Bu davrda O'zbekiston xalq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarish salmog'i yildan yilga oshib borgan bo'lsada, ammo eng asosiy sanoat korxonalari ittifoq tasarrufida bo'lib, u turdagi korxonalarning salmog'i barcha sanoat korxonalarining 90% ni tashkil qildi.

Ikkinchidan, 30 yillarda O'zbekistonda ko'mirni sanoat usulida qazib olish, zamonaviy kimyo sanoati, trikataj sanoati, sun'iy ipakdan gazlama to'qish kabi yangi sanoat tarmoqlari vujudga keltirildi.

Uchinchidan, urushdan avvalgi yillarda O'zbekistonda besh yillik rejalarida tabiiy resurslarni qidirib topish yangi konlarni ishga tushirish eng asosiy vazifalar qatoridan joy oldi. Jumladan, O'zbekistonda neft sanoatiga sarflangan. Mablag'lar ko'paytirilib, sohani boshqarish uchun yangi trestlar vujudga keltirildi. Xususan neft konlaridan Termiz foydalanishni kuchaytirish uchun neft tresti noyob metallarni qidirish topishdan va udan foydalanish muammalarini hal etish maqsadida "O'zbeishchilsoniinoyob trest" tashkil etildi.

To'rtinchidan, barpo etilayotgan sanoat korxonalri O'zbekiston viloyatlari bo'yicha joylashtirishda nomutanosibliklar mavjud bo'ladi. respublikadagi sanoat korxonalarining 40% Toshkent, 31% Farg'ona okruglari hissasiga to'g'ri keldi. Sanoat sohasini yo'lga qo'yish.masalan, Qashqadaryo, Surxondayo va Xorazm viloyatlarida sust edi. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sanoat koronalari ham asosan Toshkent va Farg'ona viloyatlariga joylashtirildi.

Beshinchidan, bu davrda an'anaviy hunarmandlik soniyellari soni kamayib bordi. Xom ashyo defetsent bo'lmagan hunarmandchilik tarmoqlari yo'lga qo'yilib, ular asosan qoldiq xom ashyolar hisobiga mahsulot ishlab chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekistonning yangi tarixi. 2 jild. 342-bet.
2. Fayzulla Xo'jayev Izb. Trudi V 3-x tomax T.2-T., 1972, s 247.
3. Неполнин В.Я.Исторический опыт строительства социализма в Узбекистане (1917-1937 гг.) Т., 1960, 275 с.
4. Народное хозяйство Узбекской ССр за 50 лет. 72-бет
5. Советской Узбекистан за 40 лет. Ст.сб. т., 1964, 67-бет.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, r -1624 jamg'arma, 10-ruyxat, 131-ish, 32-varaq

**ЎСМИРЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ИНТЕРНЕТ
ЖАҲОН АХБОРОТ ТАРМОҒИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**

Д.А.БОБОМУРОДОВ – Т.Н.Қори
Ниёзий номидаги ЎзПФИТИ
мустақил изланувчиси, подполковник.

Аннотация. Мақолада ўсмирларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш воситаларини тизимлаштириш мақсадида Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиш маданиятини ошириш, ғоявий ва ахборот хуружларига қарши мафкуравий иммунитетини кучайтириш кераклиги ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: технология, интернет, оммавий ахборот воситалари, регулятор, позиция, тозалаш, англаш, мулоқат, тўғри фойдаланиш.

Аннотация. В целях систематизации средств воспитания подростков в духе воинского патриотизма в статье отмечается необходимость повышения культуры пользования всемирной информационной сетью Интернет, укрепления их идеологического иммунитета к идеологическим и информационным атакам.

Ключевые слова: технология, Интернет, СМИ, регулятор, позиция, очистка, осведомленность, коммуникация, правильное использование.

Abstract. In order to systematize the means of educating teenagers in the spirit of military patriotism, it is mentioned in the article that it is necessary to increase the culture of using the Internet world information network, to strengthen their ideological immunity against ideological and informational attacks.

Keywords: technology, Internet, media, regulator, position, cleaning, awareness, communication, proper use.

Ўсмирларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашга таъсир кўрсатувчи омил бу - оммавий ахборот воситаларидир. Бугунги дунё оммавий ахборот воситаларининг технологик камрови, таъсири ниҳоятда кенгайиб кетганлиги билан тавсифланади. Айниқса, оммавий ахборот воситаларининг ижтимоий фикрини ривожлантиришдаги ўрни ортиб борапти. Бу эса ҳар бир шахсга жумладан ўсмирга ҳам оммавий ахборотнинг, интернетнинг, ижтимоий тармоқларнинг, телеграм тармоқларининг таъсири ошиб бораётганлиги билан аҳамиятлидир.

Ўсмирларда ҳарбий ватанпарварлик тарбияси натижаларининг намоён бўлиши унинг ёши билан, ҳаётий тажрибаси билан витеген тажрибаси билан бевосита боғлиқ. Мисол учун ёши улуг инсонларда ватанпарварлик туйғусининг олдинги мазмуни ҳали яшаётган ва унинг хулқини регулятори вазифасида хизмат қилаётган бўлади ва бу муносабат уларнинг малакаларига айланган бўлади. Шу сабабли ёши катта одамлар ватанпарварлик туйғусига зид, негатив хабарларга тезда ўзларининг муносабатларини билдирадилар.

Ўсмирлар ўз умрларининг ўз-ўзини англаш деган фазасида яшашади. Бу дунёдаги мавжуд глобаллашув шароитида ўсмирларга таъсир кўрсатаётган интернет тармоғи ҳам уларга катта таъсир кўрсатаётганлигини ҳам алоҳида таъкидлаш зарур. Бу таъсир ёши улугларга нисбатан кучли бўлмаслиги мумкин, лекин энди ўзини ўзи англаётган ўсмирлар учун жуда жиддий омилдир. Шу сабабли ўсмирда оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистон, Ватан равнақи, Янги Ўзбекистон, Учинчи Ренессанс, бизнинг буюк боболаримиз ҳақидаги билим эътиқод, қадриятнинг шаклланиши алоҳида бир педагогик ғамхўрлик остида амалга оширилиши керак.

Ўсмирларда ҳарбий ватанпарварлик туйғусини шакллантиришнинг ички омилларига ўсмирнинг эътиқоди, ўсмирнинг туйғулари, ўсмирнинг фазилатлари ва уларнинг йиғиндиси сифатида намоён бўлувчи ўсмирнинг ватанпарвар позицияси таъсир қилади. Тадқиқодчи